Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
m_nigora93@mail.ru

GREEN INVESTMENT DEVELOPMENT IN CHINA: CURRENT TRENDS AND PERSPECTIVES

Makhmasobirova Nigora Uktam qizi
PhD, Acting Associate Professor
Tashkent State University of Oriental Studies
m_nigora93@mail.ru

Annotation. *The paper analyzes current trends in green investment development in China, focusing on green finance, renewable energy, clean technologies, and energy transition. It highlights the role of government policies and financial mechanisms in promoting sustainable investment and China's transition toward a green and low-carbon economy.*

Keywords: *green investment, green finance, China, renewable energy, energy transition, carbon neutrality.*

XXI asrda ekologik cheklovlar, energiya xavfsizligi, havoning ifloslanishi va uglerod chiqindilarini kamaytirish zarurati yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini jadallashtirmoqda. Natijada qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, toza texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarga yo‘naltirilgan barqaror investitsiyalar mamlakatlar iqtisodiy siyosatida tobora muhim o‘rin egallamoqda.

Iqtisodiyotni yashillashtirish, barqaror moliyani jadallashtirishda Xitoy tajribasi o‘ziga xosdir. Bugungi kunda Xitoy global miqyosda yashil investitsiyalarning eng yirik hajmiy bozoriga aylandi. Mamlakat hukumati o‘zining iqtisodiy modelini sifat jihatidan o‘zgartirish maqsadida “Yashil moliya tizimi”ni ishlab chiqdi. Xitoy Xalq Banki (PBOC) regulyativ ko‘rsatmalari asosida mamlakatda dunyodagi eng yirik yashil kreditlash va yashil obligatsiyalar bozori shakllandi [1]. Xitoy 2030-yilga kelib uglerod chiqindilari cho‘qqisiga chiqishni va 2060-yilga borib karbon neytralligiga erishishni qat’iy maqsad qilib qo‘ygan [2].

Bugungi kunda XXR global quyosh panellarining 75%dan ortig‘ini va shamol turbinalarining salmoqli qismini ishlab chiqaradi, bu esa uning xalqaro QTE sarmoyalaridagi mutloq yetakchiligini ko‘rsatadi [3]. 2025-yilda toza energiya investitsiyalar o‘sishining 90% dan ortig‘ini ta’minlagan va mamlakat YaIMining 11,4% ini tashkil etgan. 2025-yil 3-chorak holatiga ko‘ra, yashil kreditlar 43,51 trillion yuanga (~6,2 trillion AQSh dollari) yetgan bo‘lib, bu 17,5% o‘sishni anglatadi. Asosiy yo‘nalishlar quyosh energiyasi, shamol energetikasi va batareya texnologiyalaridir [4].

Xitoyning yashil investitsiyalar bozorining asosiy tendensiyalari (2025-2026):

Bozor yetakchiligi: Xitoy 2024-yilda energiya transformatsiyasiga 818 milliard dollar sarmoya kiritgan bo‘lib, bu boshqa har qanday davlatdan ikki baravar ko‘pdir [5].

Asosiy sektorlar: “Yangi uchlik” deb ataluvchi yo‘nalishlar – elektromobillar (EV), litiy-ion batareyalar va quyosh energiyasi – eng ko‘p kapital jalb qilgan sohalar hisoblanadi [6].

O‘sish omili: toza energiyasiz mamlakat yillik 5% o‘sish maqsadiga erisha olmasligi mumkinligi sababli ushbu sektor iqtisodiy barqarorlik uchun muhim omilga aylangan.

Tizimli o‘zgarish: investitsiyalar faqat elektr ishlab chiqarish bilan cheklanmay, balki tarmoq infratuzilmasi, aqlli tizimlar va energiya saqlash yo‘nalishlariga ham kengaymoqda. 2025-yilda uzatish infratuzilmasiga 88 milliard dollar yo‘naltirilgan [7].

Biroq, yashil investitsiyalarning tez sur’atlarda o‘sishi elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya xavfsizligi va moliyaviy samaradorlik bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energetikaga katta hajmdagi investitsiyalarga qaramay, energiya balansini ta’minlash maqsadida ko‘mir energetikasidan foydalanish davom etmoqda [7].

Umuman olganda, Xitoyda barqaror investitsiyalarni rivojlantirishda davlat siyosati, yashil moliyalashtirish mexanizmlari va qayta tiklanuvchi energetikaga yo‘naltirilgan kapital oqimlari muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda Xitoy kompaniyalarining toza texnologiyalar, xususan, quyosh energetikasi va akkumulyatorlar ishlab chiqarishiga xalqaro investitsiyalari ham sezilarli darajada kengaygan [8]. Shu bilan birga, davlat korxonalari yashil investitsiyalarning asosiy ishtirokchilaridan bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, xususiy kapitalni ushbu yo‘nalishga jalb qilish mexanizmlari ham rivojlantirilmoqda [7]. Mamlakatda karbon savdosi tizimining kengayishi va past uglerodli shaharlar bo‘yicha pilot dasturlar yashil investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qilmoqda [9; 10]. Shunday qilib, Xitoy tajribasi yashil investitsiyalarni davlat siyosati, moliyaviy mexanizmlar va texnologik rivojlanish bilan uyg‘unlashtirishga asoslangan kompleks yondashuvni namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. People’s Bank of China (PBOC). Green Finance Guidelines and Regulatory Framework in the Banking Sector / PBOC. – Beijing: China Financial Press, 2021. – P.12

2. https://english.www.gov.cn/archive/whitepaper/202511/08/content_WS690ee812c6d00ca5f9a076cd.html

3. International Energy Agency (IEA). World Energy Investment Report 2022: Focus on the Asia-Pacific Region / IEA. – Paris: IEA Publications, 2022. – P.38

4. https://greenfdc.org/china-green-finance-status-and-trends-2025-2026/

5. https://www.weforum.org/stories/2025/07/chinas-green-transformation/

6. https://www.theguardian.com/world/2026/feb/05/china-green-energy-sector-investment-growth

7. https://www.iea.org/reports/world-energy-investment-2025/china

8. https://www.lse.ac.uk/granthaminstitute/publication/chinas-green-leap-outward-the-rapid-scale-up-of-overseas-chinese-clean-tech-manufacturing-investments/

9. https://www.ey.com/en_cn/insights/china-opportunities/how-is-china-creating-an-environment-for-world-class-green-investment

10. Wang, Z., Zhu, P. & He, B. How does China’s low-carbon city pilot program promote green investment: a spatial–temporal analysis at the city and firm levels. *Humanit Soc Sci Commun* 13, 1416 (2026). https://doi.org/10.1057/s41599-026-07607-z

XITOY INVESTITSIYALARI ASOSIDA O‘ZBEKISTONDA SANOAT KLASTERLARINING SHAKLLANISHI VA AGLOMERATSION SAMARALARI

Shohruh Mardonov
katta o‘qituvchi, TDSHU
shohruh_mardonov@tsuos.uz

FORMATION OF INDUSTRIAL CLUSTERS AND AGGLOMERATION EFFECTS IN UZBEKISTAN BASED ON CHINESE INVESTMENTS

Shokhrukh Mardonov
Senior teacher, TSUOS
shohruh_mardonov@tsuos.uz

Annotation. *This thesis analyzes the process of industrial cluster formation in Uzbekistan driven by Chinese investment, along with the resulting agglomeration effects. Drawing on official statistical data for 2020-2025, the study examines the dynamics of bilateral trade-economic relations and the spatial concentration of Chinese capital within free economic zones and specialized industrial areas. The findings show that the territorial clustering of Chinese investment generates not only direct economic growth but also indirect agglomeration effects such as technology transfer, infrastructure development, and employment growth. The paper concludes with concrete recommendations for managing this process more effectively.*

Keywords: *Chinese investment, industrial-trade cluster, agglomeration, free economic zone, Uzbekistan-China cooperation, regional development, Belt and Road Initiativ, SDG 8.*

Kirish. O‘zbekiston-Xitoy munosabatlari so‘nggi o‘n yillikda strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilib, savdo-iqtisodiy hamkorlik yangi sifat bosqichiga o‘tdi. 2025-yilning yanvar–avgust oylarida ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 9,7 milliard dollardan oshib, bu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 21,1 foizga ko‘paydi. Shu bilan birga, Xitoyning O‘zbekistonga kiritgan umumiy investitsiyalari hajmi 14 milliard dollardan oshdi, Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni esa so‘nggi yillarda uch barobar ko‘paydi [1]. Bunday jadal o‘sish nafaqat statistik ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi, balki hududiy iqtisodiy tuzilmaning tub o‘zgarishi ya’ni Xitoy kapitali jamlangan sanoat-savdo klasterlarining shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Muhokama va natijalar. O‘zbekiston -Xitoy savdo aylanmasi dinamikasi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda. 2019-yilda savdo aylanmasi 7.6 mlrd dollarni tashkil etgan bo‘lib, bundan 2.9 mlrd eksport va 5.1 mlrd dollar importga tegishli edi [2]. 2025-yilning yanvar-avgust oylarida O‘zbekistonning Xitoydan importi 3 baravar oshib 8,45 milliard dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, O‘zbekistondan Xitoyga eksport 1,24 milliard dollargacha pasaydi, bunda gaz eksporti alohida o‘rin tutib, umumiy eksportning 40 foizga yaqinini tashkil etdi [1].

“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasida 62 ta xalqaro investitsion loyiha amalga oshirilgan bo‘lib, ularning muhim qismi Xitoy kapitali ishtirokida farmasevtika, elektrotexnika va qayta ishlash tarmoqlarida faoliyat yuritmoqda. Shunga o‘xshash jamlanish jarayoni Jizzax va Farg‘ona vodiysidagi maxsus sanoat zonalarida ham kuzatilmoqda. 2026-yil 1-sentabr holatiga respublikada 613 mingdan ortiq korxonasi faoliyat yuritmoqda [3].

Xitoy investitsiyalarining O‘zbekiston hududlarida jamlanishi klassik aglomeratsion samaralarni ya’ni sanoat aloqalari zichligining ortishi, malakali ishchi kuchi bozorining shakllanishi va transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishini keltirib chiqarayotganini ko‘rsatadi. EIZlarda Xitoy kompaniyalarining jamlanishi “domino effekti” mexanizmi orqali qo‘shimcha xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilmoqda, chunki tayyor infratuzilma va soliq imtiyozlari yangi loyihalar uchun kirish xarajatlarini sezilarli darajada pasaytiradi. 2026-yilning yanvar-mart oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 18 mlrd. AQSH dollariga teng bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 471,0 mln. AQSH dollariga yoki 2,7% ga o‘sdi [5].

Savdo tuzilmasidagi nomutanosiblik importning eksportdan sezilarli darajada yuqoriligi dolzarb muammo hisoblanadi. Xitoy hozirgi kunda texnologiylarni rivojlantirish uchun subsidiyalar va imtiyozli kreditlar orqali yashil texnologiya sanoatining aglomeratsiyalarga ta’sirini yuqori baholamoqda [4].

Xulosa qilib aytganda, Xitoy investitsiyalari asosida O‘zbekistonda shakllanayotgan sanoat klasterlari mamlakatning hududiy iqtisodiy tuzilmasida sezilarli aglomeratsion samaralarni yuzaga keltirmoqda. Bu jarayonni yanada samarali boshqarish uchun EIZlarda eksportga yo‘naltirilgan Xitoy loyihalarini rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish, klasterlar atrofida mahalliy kadrlar tayyorlash va texnologik kompetensiyalarni oshirish dasturlarini joriy etish, hududiy jamlanish jarayonini monitoring qilish uchun yagona statistik baza yaratish, transport-logistika infratuzilmasini klasterlarning kengayishiga moslashtirib rivojlantirish zarur. Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekiston-Xitoy iqtisodiy hamkorligining barqaror va o‘zaro manfaatli rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Tashqi savdo va investitsiyalar statistikasi, 2025. https://stat.uz/img/press_reliz_tashi_savdo_uzb_yanvar_2025-ok_p60092.pdf

2. Sadibekova, Bibisara Djapparovna (2021). PANDEMIYA SHAROITIDA XITOY–O‘ZBEKISTON O‘ZARO SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 1), 692-700. doi: 10.24412/2181-1784-2021-1-692-700

3. Samarqand viloyati Milliy statistika qo‘mitasi. https://samstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/16678-o-zbekistonda-korxona-va-tashkilotlar-soni-613-5-mingtaga-yetdi

4. Mardonov,, S. S. (2023). FROM SMOKESTACKS TO SOLAR FARMS: CHARTING CHINA'S MOVE AWAY FROM HEAVY INDUSTRY TOWARDS GREEN TECH AGGLOMERATION. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (21), 739-744. doi: 10.24412/2181-1784-2023-21-739-744

5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi, 2026. https://gov.uz/oz/activity_page/investment.

SAVDO VA IQTISODIY MUNOSABATLARNING RIVOJI VA ISTIQBOLLARI (SDG 8)

Fotima Nazarova, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
i.f.d., prof. Axmedova Asalxon 2-kurs magistranti,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
asalkhon004@gmail.com

DEVELOPMENT AND PROSPECTS OF TRADE AND ECONOMIC RELATIONS (SDG 8)

Fotima Nazarova, Tashkent State University of Economics,
Doctor of Economic Sciences, Professor
Asalkhon Akhmedova, Second-year Master's Student,
Tashkent State University of Oriental Studies
asalkhon004@gmail.com

Abstract: *This thesis scientifically analyzes the current state and future prospects of trade and economic relations within the framework of Sustainable Development Goal 8 (SDG 8). It also highlights mechanisms for diversifying relations, expanding foreign trade turnover, creating decent jobs, and stimulating economic growth.*

Key words: *SDG 8, sustainable economic growth, trade relations, decent work, export potential, economic integration.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va shiddatli o‘zgarishlar davrida Barqaror rivojlanish maqsadlarining (BRM / SDG) ahamiyati keskin ortib bormoqda. Xususan, Barqaror rivojlanish maqsadlarining sakkizinchi yo‘nalishi (SDG 8 – Munosib ish o‘rinlari va iqtisodiy o‘sish) mamlakatlarning barqaror, inklyuziv va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi [1]. Ushbu tezisning asosiy maqsadi – milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida savdo va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari hamda istiqbollarini ochib berishdan iborat.

SDG 8 doirasida iqtisodiy o‘sish va savdo munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligi. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda tashqi savdo aloqalari va o‘zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik eng muhim drayverlardan biri hisoblanadi [2]. Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, ochiq va raqobatbardosh savdo siyosati mamlakatning eksport salohiyatini oshiribgina qolmay, balki ichki bozorda yangi texnologiyalarni transfer qilishga zamin yaratadi [3]. O‘zbekiston misolida olib qaraganda, tashqi savdoni liberallashtirish va xalqaro transport yo‘laklarini rivojlantirish SDG 8 maqsadlariga erishishda amaliy natijalarni bermoqda [4].

Ilmiy yondashuv: Savdo munosabatlarini rivojlantirish nafaqat tovar ayirboshlash hajmini oshirish, balki yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulug‘vorligini ta'minlash hamda xizmatlar sohasini diversifikatsiya qilish orqali amalga oshirilishi lozim [5].

Munosib mehnat va bandlikni ta'minlashning savdoga ta'siri. SDG 8 ning ustuvor vazifalaridan biri – to‘la va unumli bandlik hamda barcha uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratishdir. Xalqaro savdoning kengayishi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ochish va servis markazlarini tashkil etish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishga turtki beradi [6]. Ekspertlarning fikricha, kichik va o‘rta biznes subyektlarini tashqi bozorlarga olib chiqish orqali aholi bandligini ta'minlash barqaror iqtisodiy o‘sishning asosiy kafolatidir [7].

Xulosa. SDG 8 talablariga muvofiq savdo va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish mamlakatda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, eksport geografiyasini kengaytirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Savdo siyosatining ochiqligi va innovatsion yondashuvlarga asoslanishi kelgusida uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. United Nations. (2015) Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York: UN Publishing.

2. World Trade Organization (WTO). (2023) World Trade Report: Trade and SDG 8 – Growth and Decent Work. – Geneva: WTO Publications.
3. Tursunov, B. (2023) Tashqi iqtisodiy faoliyat va mintaqaviy integratsiya jarayonlari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 112-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2023) “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
5. Umarov, D., & Rahimov, S. (2024) Barqaror iqtisodiy o‘sish sharoitida savdo munosabatlarini diversifikatsiya qilish yo‘llari. "Iqtisodiyot va moliya" jurnali, 2-son, 34-41-betlar.
6. International Labour Organization (ILO). (2023) World Employment and Social Outlook: Trends 2023. – Geneva: ILO.
7. Qodirov, A. (2022) Munosib mehnat va bandlikni ta'minlashda kichik biznesning o‘rni. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 175-b.

CHINA – UZBEKISTAN COMPREHENSIVE STRATEGIC PARTNERSHIP

Nikolaeva Kamila Sergeeevna
PhD in Political Sciences, Associate Professor
Tashkent State University of Oriental Studies
kamilanikolaeva888@gmail.com

Annotation. *The article analyzes the modern dynamics of the Uzbek-Chinese strategic partnership in the context of the transformation of the global world order. It examines the political and diplomatic aspects of elevating bilateral relations to the level of an "all-weather comprehensive strategic partnership".*

Key words: *Uzbekistan, China, all-weather partnership, Central Asia, foreign policy, transport corridors, security, SCO, Afghanistan, green economy.*

The development and promotion of a comprehensive strategic partnership between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China is currently taking place under the leadership of Uzbekistan's President Sh.Mirziyoyev and China's President Xi Jinping amid major changes in Uzbekistan, significant shifts in Central Asia and China's ongoing rise [2], strengthening its role in the global economy and international relations. The development and further growth of a comprehensive strategic partnership is happening in the key areas that are important for both countries.

Firstly, strengthening political mutual trust and promoting political dialogue. The intensive nature of 'head of state diplomacy' and official contacts at the highest, senior and other levels have become a key resource for building mutual trust and broad intergovernmental interaction aimed at expanding multi-faceted partnership [5].

Secondly, the development of multifaceted practical cooperation, especially in the areas of trade, investment and transport. China, through the "Belt and Road" initiative, has significantly increased financing for industrialization and infrastructure projects in developing countries, including the Central Asian states. China, as a close neighbor and one of the world's key economies, has become a natural "development partner" for Uzbekistan [4].

Thirdly, promoting cooperation on regional and international issues. The new regional policy in Central Asia, led by Sh.Mirziyoyev has helped create a new political atmosphere in the region, build mutual trust, establish mechanisms for multilateral cooperation, and promote active engagement of the states in the region with leading global partners [3]. China supported many of Uzbekistan’s initiatives to develop political dialogue, strengthen interaction and cooperation among Central Asian countries.

Fourthly, strengthening the humanitarian foundations of bilateral relations. Our countries maintain diverse cultural and humanitarian ties, and cooperation is developing in education,

science, culture, sports and tourism, as well as through partnerships between friendship societies, women's and youth organizations, with growing media exchanges [1].

Overall, the development of a comprehensive strategic partnership is successfully continuing on a solid foundation of mutual trust and understanding, taking each other's interests into account, mutually beneficial practical cooperation and international interaction between our two countries.

List of references:

1. 9 fevralya – den rojdeniya Alishera Navoi // https://uza.uz/ru/posts/9-fevralya-den-rozhdeniya-alishera-navoi_566154?ysclid=mu8dk5ws8r616440653.
2. Kitayskoye ekonomicheskoye chudo: ob'yasnyayem v grafikax i sifrax // https://www.bbc.com/russian/features-49885983?ysclid=mu8d59t1gr516397257.
3. Khmeleva G.A., Trukhin A.S. Strategic Partnership Between Uzbekistan and China: New Avenues for Economic Cooperation. International Business. 2025;(3(13)):96-109.
4. Komolitdinova Kh., Lv JianPing. The Opportunities for Bilateral Cooperation between China and Uzbekistan in the Lens of "Belt and Road" Initiative // International Journal of Economics and Finance.
5. Prezident Uzbekistana provel vstrechu s glavoy Kitaya // https://uza.uz/ru/posts/prezident-uzbekistana-provel-vstrechu-s-glavoy-kitaya--09-06-2018?ysclid=mu8daea335895347888.

К НОВЫМ ЗАДАЧАМ ПО РАЗВИТИЮ УЗБЕКСКО-КИТАЙСКИХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Парамонов Владимир Владимирович
Доктор политических наук (DSc)
Координационно-методический центр по вопросам новейшей истории Узбекистана
Академии наук Республики Узбекистан
ceasiapost@gmail.com

NEW TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF UZBEK-CHINESE ECONOMIC RELATIONS

Paramonov Vladimir Vladimirovich
Doctor of Political Science (DSc)
Coordination and methodological center on issues of modern history of Uzbekistan
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
ceasiapost@gmail.com

Abstract. *Based on many years of interdisciplinary and comparative research, including as part of a doctoral (DSc) dissertation, the article offers a complex set of strategic and tactical recommendations for the development of economic relations between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China.*

Keywords: *Uzbekistan, China, economy, politics, security, history, modernity, Central Asia, Russia, BRI, SCO.*

Улучшение всего формата узбекско-китайских стратегических отношений возможно лишь при условии наращивания совместных с Россией и другими постсоветскими странами усилий по реабилитации былого статуса Центральной Азии в качестве безопасного транзитного пространства Евразии – между Азией и Европой, развития сотрудничества в реальных секторах экономики, в том числе с привлечением передовых технологий. С точки зрения долгосрочных экономических интересов Нового Узбекистана приоритетна поддержка проектов по строительству и модернизации системы железнодорожных и автомобильных тоннелей через перевал «Камчик», а также многочисленных сопровождающих проектов. С одной стороны, это позволит ускорить развитие наиболее густонаселенных областей Ферганской долины. С другой стороны, это

будет способствовать продвижению международных транспортных маршрутов через узбекскую территорию. Как представляется, в сложившихся условиях только Китай может предложить Узбекистану свою помощь в строительстве этих инфраструктурных объектов.

Среди основных преимуществ КНР по реализации проектов тоннелей через перевал «Камчик» выделяются следующие:

- возможность привлечения крупного финансирования (или со-финансирования);
- возможность быстрого проведения работ по подготовке технической документации;
- наличие большого и успешного опыта подобного рода строительных работ как на территории Китая, так и Узбекистана (генеральным подрядчиком строительства первого железнодорожного тоннеля «Камчик» была китайская компания China Railway Tunnel Group);
- возможность быстрой доставки китайской строительной техники, инженеров и рабочих автодорожным (через Кыргызстан) и железнодорожным (через Казахстан) транспортом.

Помимо этого, принципиально важен проект строительства отдельного уже автодорожного тоннеля через перевал «Камчик». Инициатива о создании данного тоннеля была выдвинута Президентом Узбекистана, однако проект пока глубоко не проработан. В этой связи целесообразно активизировать усилия по переговорам с КНР. Так Китай мог бы предложить, например финансовую и строительную помощь. Важно, чтобы тоннель технически предусматривал транспортировку воспламеняющихся грузов. Тоннель существенно снизил бы нагрузку на железнодорожные коммуникации, в первую очередь в рамках проекта железной дороги «Китай – Кыргызстан – Узбекистан», стал бы альтернативным в плане транспортировки различных товаров, в том числе опасных для перевозки. Было бы целесообразно если бы этот тоннель проходил параллельно новому железнодорожному тоннелю через перевал «Камчик». Это облегчило бы организацию комплексных мер пожарной и иной безопасности обоих тоннелей.

Список использованной литературы:

1. Парамонов В.В. Китай и Центральная Азия: курсом на стратегическое партнерство и экономическую кооперацию (История, современность и будущее отношений Центральной Азии с Китаем в сферах политики, безопасности и экономики). – Ташкент, 2024. – 152 с.

2. Парамонов В.В. Взаимоотношения государств Центральной Азии с Россией и Китаем: от теории к практике. – Ташкент, 2023. – 280 с.

3. Парамонов В.В. Россия и Китай в контексте безопасности Центральной Азии: взгляд из Узбекистана. – Ташкент, 2024. – 210 с.

4. Парамонов В.В. Взаимоотношения стран Центральной Азии с Россией и Китаем: ведущие эксперты и институты, основные научные публикации и исследования. – Ташкент, 2023. – 153 с.

ШАНХАЙ ҲАМКОРЛИК ТАШКИЛОТИНИНГ 2026 ЙИЛГИ БИШКЕК САММИТИ ВА ЎЗБЕКИСТОН-ХИТОЙ СТРАТЕГИК ШЕРИКЛИКИНИНГ ЯНГИ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Сабитов Шукур Абдурахманович
Сиёсий фанлар номзоди, Г.В. Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университети Тошкент филиали, “Халқаро иқтисодиёт ва бизнес” кафедраси доценти
shukursabitov@gmail.com

THE 2026 BISHKEK SUMMIT OF THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION AND NEW PROSPECTS FOR UZBEKISTAN-CHINA STRATEGIC PARTNERSHIP

Sabitov Shukur Abdurakhmanovich

PhD, Associate Professor of the Department of "International Economics and Business,"
Plekhanov Russian University of Economics, Tashkent branch
shukursabitov@gmail.com

Abstract: *This article analyzes the outcomes of the 26th Meeting of the Council of Heads of State of the Shanghai Cooperation Organization (SCO), held on August 31–September 1, 2026, in Bishkek, the capital of the Kyrgyz Republic, and its significance for further developing the strategic partnership between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China. Particular attention is devoted to the meeting between President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev and President of the People's Republic of China Xi Jinping. The meeting identified new areas of bilateral cooperation in trade and economic relations, investment, industrial development, transport and logistics, energy, digitalization, artificial intelligence, education, and humanitarian cooperation. The findings of the study demonstrate that the Bishkek Summit created new opportunities for developing the Uzbekistan–China strategic partnership within a multilateral framework.*

Keywords: *Shanghai Cooperation Organization, SCO, Uzbekistan, China, strategic partnership, Bishkek Summit, Shavkat Mirziyoyev, Xi Jinping, "Belt and Road Initiative," transport and logistics, industrial cooperation, artificial intelligence, digital economy.*

Кириш. Замонавий халқаро муносабатлар тизимида геосиёсий ва геоиқтисодий жараёнларнинг жадал ўзгариши минтақавий ҳамкорлик механизмларининг аҳамиятини оширмоқда. Осиё давлатларининг жаҳон иқтисодиётидаги роли ортиши, янги транспорт-логистика йўлакларининг шаклланиши, рақамли технологиялар ва сунъий интеллектнинг ривожланиши ҳамда хавфсизлик соҳасидаги янги таҳдидлар ШҲТ фаолиятининг мазмунан кенгайишига олиб келмоқда. 2001 йилда ташкил этилган ШҲТ дастлаб хавфсизлик масалаларига устувор аҳамият берган бўлса, бугунги кунда унинг кун тартиби савдо-иқтисодий ҳамкорлик, инвестициялар, саноат кооперацияси, транспорт, энергетика, рақамли иқтисодиёт, экология ва гуманитар алоқаларни ҳам қамраб олмоқда.

Асосий қисм. 2026 йил 31 август – 1 сентябрь кунлари Бишкек шаҳрида ўтказилган ШҲТ Давлат раҳбарлари кенгашининг 26-мажлиси ташкилот тараққиётининг янги босқичини белгилаб берган муҳим сиёсий тадбир бўлди. Саммит якунлари бўйича 28 та ҳужжат қабул қилиниши ШҲТнинг институционал салоҳиятини мустаҳкамлаш ва ҳамкорликнинг янги йўналишларини шакллантиришга интилишини намоён этди. Саммитда хавфсизлик, иқтисодий ҳамкорлик, транспорт-транзит, энергетика, рақамли технологиялар, экология ва гуманитар алоқалар масалалари муҳокама қилинди. Бу эса ШҲТнинг нафақат хавфсизлик, балки минтақавий иқтисодий ва технологик ҳамкорлик платформаси сифатидаги аҳамияти ортиб бораётганини кўрсатади.

Бишкек саммити доирасида Шавкат Мирзиёев ва Си Цзиньпин ўртасидаги учрашув Ўзбекистон–Хитой стратегик шериклигининг истиқболларини белгилашда алоҳида аҳамият касб этди. 2026 йилда икки давлат ўртасидаги ҳар томонлама стратегик шериклик муносабатларига ўн йил тўлиши икки томонлама алоқаларни янги босқичга олиб чиқиш учун муҳим сиёсий асос бўлди. Музокараларда савдо-иқтисодий ва инвестициявий ҳамкорликни кенгайтириш, саноат кооперациясини чуқурлаштириш, транспорт-логистика инфратузилмасини ривожлантириш, энергетика, рақамли технологиялар ва сунъий интеллект соҳаларида ҳамкорликни кучайтиришга эътибор қаратилди.

Ўзбекистон–Хитой иқтисодий ҳамкорлигининг муҳим мақсадларидан бири икки томонлама товар айирбошлаш ҳажмини яқин йилларда **30 млрд АҚШ долларига етказиш** ҳисобланади. Бу мақсадга эришиш Ўзбекистон экспортини диверсификация қилиш, саноат ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг Хитой бозорига чиқиш имкониятларини кенгайтириш, шунингдек, юқори қўшилган қийматга эга маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кўпайтиришни талаб этади.

Стратегик шерикликнинг яна бир муҳим йўналиши **Хитой–Қирғизистон–Ўзбекистон темир йўли** лойиҳасидир. Мазкур транспорт коридори Хитойни Марказий Осиё билан боғлаш, минтақавий савдо ҳажмини ошириш, логистика харажатларини камайтириш ва Ўзбекистоннинг транзит салоҳиятини кучайтириш учун янги имкониятлар яратади. Унинг амалга оширилиши “Бир макон – бир йўл” ташаббусининг минтақавий транспорт инфратузилмаси билан уйғунлашувини таъминлайди.

Хулоса. 2026 йилги Бишкек саммити ШҲТнинг институционал ва функционал ривожланишида муҳим босқич бўлиб, Ўзбекистоннинг ташкилот доирасидаги фаол ва конструктив позициясини яна бир бор намоён этди. “ШҲТ – 2040” концепцияси, саноат кооперацияси харитаси, тараққиёт банки, транспорт интеграцияси, рақамли технологиялар ва сунъий интеллект соҳасидаги ташаббуслар Ўзбекистоннинг кўп томонлама иқтисодий ҳамкорликни чуқурлаштиришга қаратилган стратегик ёндашувини ифодалайди.

Шавкат Мирзиёев ва Си Цзиньпин ўртасидаги музокаралар эса Ўзбекистон–Хитой стратегик шериклигининг янги истиқболларини белгилаб берди. Савдо ҳажмини 30 млрд долларга етказиш, йирик инвестициявий лойиҳаларни амалга ошириш, саноат кооперациясини кенгайтириш, Хитой–Қирғизистон–Ўзбекистон темир йўлини ривожлантириш ва юқори технологиялар соҳасида ҳамкорликни кучайтириш икки давлат муносабатларининг комплекс ва узоқ муддатли характер касб этаётганини кўрсатади.

Фойдаланилган манбалар

1. Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти. 2026 йил 1 сентябрда Бишкек шаҳрида бўлиб ўтган ШҲТ Давлат раҳбарлари кенгашининг 26-мажлиси материаллари.
2. Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти. Бишкек декларацияси. 2026 йил.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. Шавкат Мирзиёевнинг ШҲТ саммитидаги нутқи. 2026 йил.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. Шавкат Мирзиёев ва Си Цзиньпин ўртасидаги учрашув материаллари. 2026 йил.
5. Хитой Халқ Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги. Си Цзиньпиннинг Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев билан учрашуви материаллари. 2026 йил.

XITOYNING MARKAZIY OSIYODAGI IQTISODIY MANFAATLARI VA UNING O‘ZBEKISTON BILAN IQTISODIY HAMKORLIGINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Sadibekova Bibisara Djapparovna
TDShU - i.f.n., dotsent
bibisha@mail.ri

CHINA’S ECONOMIC INTERESTS IN CENTRAL ASIA AND THE CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF ITS ECONOMIC COOPERATION WITH UZBEKISTAN

Sadibekova Bibisara Djapparovna
Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Tashkent State University of Oriental Studies,
bibisha@mail.ri

Abstract: *This article analyzes the strategic and economic interests of the People's Republic of China in the Central Asian region, alongside the specific development characteristics of its economic cooperation with the Republic of Uzbekistan. Within the scope of the study, the role of China's "Belt and Road" Initiative in regional integration, the formation of transport-logistics corridors, and ensuring energy security is highlighted..*

Keywords: *China, Central Asia, Uzbekistan, economic interests, economic cooperation, "Belt and Road", investments, transport corridors, trade turnover, strategic partnership, energy security.*

Ma‘lumki, Xitoy Markaziy Osiyo mintaqasini o‘zining strategik geoiqtisodiy manfaatlari markazida joylashgan mintaqa sifatida ko‘radi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, Xitoyning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bir qator afzalliklarga ega:

Birinchidan, Respublikamiz geografik nuqtai nazardan anklav davlat hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, O‘zbekistondan bevosita eng arzon transport turi hisoblangan dengiz yo‘llariga chikish imkoniyati mavjud emas. Bu o‘z navbatida transport xarajatlari bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqaradi hamda mahsulot tannarxi va uning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo-iktisodiy aloqalarni rivojlantirish esa yirik transport xarajatlarini talab qilmaydi.

Ikkinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari va Xitoy O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulotlar uchun yirik tashqi bozor hisoblanadi. Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan tayyor tovarlar energiya va material sigimining yuqoriligi, sifat darajasining nisbatan pastligi ularning raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli tayyor mahsulotlarni uzoq xorij mamlakatlariga sotish ancha murakkab. Ichki bozor yetarli darajada to‘yinmagan Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa, O‘zbekiston tayyor mahsulotlari raqobatbardosh hisoblanadi.

Uchinchidan, mintaqa mamlakatlarida bir turdagi tovarlarni katta miqdorda ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud. Paxta, meva, sabzovot, kumir, gaz, neft, oltin mintaqadagi davlatlarning deyarli barchasida ishlab chiqariladi. Ana shu tarmoqlarda mahsulot miqdori va sifatini belgilash bo‘yicha kelishuvlarga erishish, bu mahsulotlarni qayta ishlash va ularni eksport qilish bo‘yicha yagona siyosatni yurgizish maqsadga muvofiq. Agar mintaqadagi respublikalar jahon bozoriga alohida chiqsalar ular o‘zaro raqobatchilarga aylanadilar, ularning birgalikda chiqishi mamlakatlar iqtisodiyotini bozor konyunkturasiga bog‘liqligini pasaytiradi va mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi.

To‘rtinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlari va Xitoy bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish boshqa sohalarda ham hamkorlik munosabatlarining faollashuviga olib keladi. Natijada yirik mablag‘lar talab etuvchi ulkan investisiya loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy mablag‘larni birlashtirish imkoniyati yuzaga keladi.

Shular bilan bir qatorda, sanoat quvvatlarini modernizatsiyalash va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda, ushbu korxonalarga yaratilayotgan qulay sharoitlar evaziga, hamda ularga qator soliq va bojxona imtiyozlarini berish natijasida milliy mahsulotlar eksport hajmini oshirishga sharoitlar payso bo‘ydo bo‘lmoqda, ular esa, o‘z navbatida, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorda mustahkam o‘rinlarni egallashga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) O‘zbekistonning eng yirik tashqi savdo hamkori bo‘lib qolmoqda. Milliy statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistonning jami tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard AQSh dollarini tashkil etib, avvalgi yilga nisbatan 20,7 foizga o‘sgan. Ushbu umumiy xalqaro savdo hajmining 21,2 foizi aynan Xitoy hissasiga to‘g‘ri keldi (taxminan 17,21 milliard AQSh dollari).

Savdo dinamikasining asosiy tendensiyalari:

-Importning mutloq ustunligi: O‘zbekiston-Xitoy savdo aylanmasining umumiy o‘sishi (yil davomida o‘rtacha 21%gacha o‘sish dinamikasi) asosan Xitoydan mamlakatimizga kirib kelayotgan import hajmining keskin ko‘payishi hisobiga yuz berdi. Yilning ikkinchi yarmida (yanvar-iyul oylari) O‘zbekiston jami import bozorining qariyb 28,7 foizi faqat Xitoy ulushiga to‘g‘ri kelgan;

-Eksportning qisqarishi: Import hajmi chorak qismga (25% atrofida) ko‘paygan bir paytda, O‘zbekistonning Xitoyga amalga oshirgan eksport ko‘rsatkichlarida pasayish kuzatildi.

Bunga asosan sanoat mahsulotlari hamda xomashyo yetkazib berish hajmining kamayishi sabab bo‘ldi;
Mahsulotlar tarkibi: O‘zbekiston Xitoydan asosan zamonaviy texnologiyalar, mashinalar, transport uskunalari, kimyoviy moddalar hamda aqlli qurilmalar va elektronika mahsulotlarini sotib oldi.

Kelgusida Xitoy–O‘zbekiston iqtisodiy hamkorligi yuqori texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, logistika va qayta tiklanuvchi energetika sohalarida yanada rivojlanishi kutilmoqda. O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi qulay geografik joylashuvi uni Xitoy uchun muhim tranzit va logistika markaziga aylantirmoqda. “Bir makon – bir yo‘l” tashabbusi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirib, O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

GREEN TECHNOLOGIES IN CHINA–UZBEKISTAN COOPERATION: FROM ENERGY INVESTMENT TO INDUSTRIAL CAPABILITIES

Sorokina Olga Aleksandrovna
Independent Researcher, University of World Economy and Diplomacy
40ina_olga@mail.ru

Annotation. *This study examines whether China–Uzbekistan green-energy projects can contribute to Uzbekistan’s high-tech industries beyond expanding electricity supply. It compares official statistics and project evidence with constraints identified in international assessments, focusing on joint research, engineering skills, local suppliers and measurable industrial outcomes.*

Keywords: *China, Uzbekistan, green technologies, technology transfer, high-tech industry, local production, engineering skills, commercialization.*

Green technologies are integral to China’s high-tech industrial development and increasingly converge with artificial intelligence, digital control, robotics, advanced materials and energy-storage systems. This integration links renewable energy to intelligent manufacturing and new industrial applications. China accounts for over 80% of global solar-module capacity and approximately 95% of silicon-wafer capacity [IEA, 2024: 1]. For Uzbekistan, such cooperation offers opportunities to acquire engineering experience and adapt technologies for domestic production, rather than merely import equipment.

Uzbekistan’s solar and wind generation rose from 4.86 billion kWh in 2024 to 10.5 billion kWh in 2025 [Ministry of Energy, 2026: 2]. Meanwhile, high-tech manufacturing’s share increased from 1.1% to 1.2%, and the medium-high-tech share from 19.5% to 21.1% [Statistics Committee, 2026: 3]. Energy expansion has therefore outpaced the development of domestic high-tech production. UNECE identifies weak research–industry links and commercialization barriers in Uzbekistan [UNECE, 2022: 7]. Table 1 presents the projects and their potential industrial effects.

Table 1. Possible industrial effects of selected China–Uzbekistan green-energy projects

Project / status	**Potential industrial contribution**	**Indicator to verify the effect**
China Datang, Buka: 263 MW solar plant; joint research centre planned	Joint applied R&D and engineering training	Research projects, trained engineers, tested solutions
CEEC, Navoi: PV and battery storage; robotic module installation reported	Storage integration, digital/robotic engineering and maintenance skills	Trained Uzbek engineers, local service contracts, suppliers

CNBM: component localization discussed, not confirmed	Potential production of selected components	Local output, domestic value added, local-component share

Source: *author's synthesis [Ministry of Energy, 2025: 4; CEEC, 2026: 5; President of Uzbekistan,2025:6].*

Beyond generating renewable electricity for industrial use, these projects may also advance Uzbekistan's high-tech development through joint research, engineering cooperation, technology adaptation and gradual production localization.

Conclusion. Innovation does not automatically become a commercially viable industrial product. This requires adaptation, pilot testing, manufacturing capacity and access to markets. Joint projects with Chinese companies offer Uzbekistan a setting for practical technological learning, provided Uzbek researchers, engineers and firms participate directly. Experience gained through joint projects should feed into Uzbekistan's own developments. Cooperation agreements should link applied R&D, training and feasible component production with measurable outcomes: tested solutions, skilled engineers, local value added and commercial applications. This would support a transition from technology imports towards domestic high-tech production.

References:

1. IEA (2024). Advancing Clean Technology Manufacturing. https://www.iea.org/reports/advancing-clean-technology-manufacturing (accessed 9 October 2026).
2. Ministry of Energy of Uzbekistan (2026). Solar and wind generation update. https://gov.uz/ru/minenergy/news/view/131931 (accessed 9 October 2026).
3. National Statistics Committee of Uzbekistan (2026). Industrial Production, 2025. https://stat.uz/img/news/press-reliz-sanoat-19_01_2026-j_-eng_p28348.pdf (accessed 9 October 2026).
4. Ministry of Energy of Uzbekistan (2025). Meeting with China Datang. https://gov.uz/ru/news/view/101238 (accessed 9 October 2026).
5. CEEC (2026). Navoi Integrated Energy Project. https://www.ceecgroup.com/en/news/ceec-s-navoi-integrated-energy-project-in-uzbekistan-successfully-completes-reverse-power-transmission/1/280 (accessed 9 October 2026).
6. President of Uzbekistan (2025). Discussion of cooperation projects with CNBM. https://president.uz/ru/lists/view/8457 (accessed 9 October 2026).

RISKS AND DEVELOPMENT PATHS OF CHINA'S ENGINEERING INVESTMENT IN UZBEKISTAN

Tianyu_An
Grade Director , Lecturer
Hebei Foreign Studies University
572845976@qq.com

Annotation:*This paper reviews China-Uzbekistan engineering investment's three-stage progress and key projects, identifying risks of geopolitical competition, policy shifts, foreign-exchange control and poor local industrial support. It argues that tailored modes, multilateral financing, compliance and localization are needed to mitigate risks and achieve mutually-beneficial cooperation.*

Key words:*China-Uzbekistan Cooperation; Engineering Investment; the Belt and Road Initiative; Overseas Engineering Risks.*

China-Uzbekistan engineering investment falls into three phases. The initial-exploration phase (1991-2013) focused on trade and equipment supply with few heavy-asset projects. The rapid-growth phase (2014-2018) was dominated by the EPC mode, marked by the landmark

Kamchik Tunnel. Since 2019, it has entered a high-quality development phase featuring integrated investment-construction-operation. Wind-photovoltaic power and industrial parks have become cooperation highlights. Several key projects have been implemented and the China-Kyrgyzstan-Uzbekistan Railway has begun preparatory work. Diversified models including EPC, EPC+F and BOT have taken shape.

Chinese-funded enterprises are confronted with multi-faceted risks. Geopolitical competition and Uzbekistan's balanced diplomacy create uncertainties for cross-border projects. Frequent legislative revisions, inconsistent implementation between central and local governments, cumbersome land approval, foreign-exchange controls and currency volatility trigger remittance and exchange risks. Constrained fiscal capacity may cause payment delays for government-funded projects, and weak local industrial chains drive up construction costs. Additional challenges stem from divergent technical standards, shortages of skilled local workforce, strict environmental assessment and biased international public opinion. Foreign-exchange and policy risks rank at a high risk level, whereas violent security risks are generally low.

